

Savobli ishlar har kuni bo'lishi kerak!

TIQXMMI talabarlari Sirdaryodagi maxsus ixtisoslashtirilgan, imkoniyati cheklanganlar maktabiga tashrif buyurishdi. Joriy yilning dekabr oyida institutimiz barcha talabalariga xayriya aksiyasi bo'lishi haqida e'lon berildi. Talabalar o'z xohishlari bilan ushbu xayriya aksiyasida faol ishtirok etishdi. Nafaqat talabalar, professor-o'qituvchilar, kafedra mudirlari, bo'lim boshliqlari, fakultet rahbariyatlari, prorektorlar va ustozimiz, institut rektori ham ushbu loyihada faol ishtirok etishdi. Barcha tashkiliy ishlar Yoshlar ittifoqi fakultet yetakchilari tomonidan, institut Kasaba uyushmasi qo'mitasi hamkorligida amalga oshirildi. Kuni kecha, ushbu xayrli ishimizning birinchi bosqichi yakunlandi.



1. Gidrotexnika fakulteti yoshlar yetakchisi va fakultet talabarlari
2. "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti yoshlar yetakchisi va fakultet talabarlari
3. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti yoshlar yetakchisi va fakultet talabarlari
4. Muddatli harbiy xizmatni o'tagan faol talabalar guruhi talabarlari
5. Institut Kasaba uyushmasi qo'mitasi
6. Iqtidorli yoshlar bilan ishlash bo'limi barchasi birlashib, jon kuydirib, yuqori darajada tayyorgarlik ko'rib Sirdaryo viloyati Baxt shahri 71-sonli ixtisoslashtirilgan nogironlar maktabiga Yangi yil bayrami bilan e'tiborga muhtoj yoshlarimizni tabriklash uchun tashrif buyurishdi.



Uzoq joyga borganimizni sababi Toshkent shahrida juda ham ko'p odamlar tashrif buyurmoqda bunday xayrli ishlarga. 245 dan ortiq o'quvchilar tahsil olayotgan ushbu maxsus maktab sharoitlari bilan oldindan tanishilib, ularga 2 ta elektr isitgich xayriyaga hissa qo'shgan talabalar nomidan sovg'a qilindi. Bayram dasturi tayyorlandi, ertak qahramonlari, qorbobo, qorqiz bilan bolajonlar mazza qilib raqsga tushishdi. Institut Kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan osh tayyorlanib, bayram dasturxonini tuzatildi bolajonlar mazza qilib ovqatlanishdi. Bolajonlarga xayriya aksiyasida ishtirok etgan barcha institut talabarlari nomidan maxsus, foydali sovg'alar topshirildi. Qolganini shunchaki ta'riflash qiyin, xursandligini o'zi katta baxt sizlar uchun deb o'ylaymiz. Ushbu xayriya aksiyasini o'tkazishda qatnashgan barcha barchaga shu ixtisoslashgan maktab o'quvchilari nomidan minnatdorchilik bildirildi Ertaga esa ana shunday niyat bilan Toshkent viloyati Angren shahriga yo'l olish rejalashtirilgan.



**Institut Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti hamda Institut Kasaba uyushmasi qo'mitasi
axboroti**

Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov